

QURILISH SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING TARJIMALARDA  
IFODALANISHI

S.A.Raxmonberdiyeva

Namangan davlat texnika universiteti katta o'qituvchi (PhD)  
[rahmonberdiyevasaida1991@gmail.com](mailto:rahmonberdiyevasaida1991@gmail.com)

MAQOLA  
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 05.06.2026

Revised: 06.06.2026

Accepted: 07.06.2026

KALIT SO'ZLAR:

qurilish  
terminologiyasi, bino  
inshootlari, leksik  
birliklar, tarjima  
muammolari,  
kontekstual tafovut.

Mazkur maqolada bino inshootlariga oid qurilish terminlarining ingliz, rus va o'zbek tillaridagi tarjima variantlari kontrastiv-lingvistik jihatdan tahlil qilingan. Tarjimalarda kuzatilgan semantik tafovutlar, kontekstga bog'liq holatlar, terminologik muqobilliklar va tarjima xatolari misollar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari qurilish sohasidagi tarjima amaliyotida yagona yondashuvning zarurligini ko'rsatadi.

Qurilish sohasi tilshunoslikda o'ziga xos terminologik qatlamga ega bo'lgan texnik yo'nalishlardan biridir. Jumladan, bino inshootlariga oid leksik birliklar ushbu sohaga tegishli hujjatlar, loyiha chizmalar, standartlar va texnik topshiriqlarda keng qo'llaniladi. Bugungi globallashuv sharoitida ushbu birliklarning inglizcha va ruscha variantlarini o'zbek tiliga to'g'ri va aniq tarjima qilish katta ahamiyat kasb etmoqda. Tarjimalarda aniqlik bo'lmasa, bu qurilish jarayonida tushunmovchiliklar va hatto texnologik xatolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bino inshootlariga oid leksik birliklarning tarjima muqobillarini ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda yurtimizda bino inshootlari qurilishi sohasi ham boshqa sohalar kabi jadallik bilan rivojlanib borishi, ushbu sohaga oid xorijiy tillardan o'zbek tiliga yangi so'z va iboralarni kirib kelishiga turtki bo'lmoqda. Sohaga oid yangi leksemalarni tilimizga kirib kelishi, turli xil zamonaviy binolarni barpo etilishi, ijtimoiy ehtiyoj va zamon talabiga moslashishi, soha mutaxassislarini kundalik hayotida qo'llanilishi hamda leksik birliklarning tarjima qilish qiyinchilik tug'dirish bilan bir qatorda ijtimoiy leksikaga ham ta'sir qiladi.

Qurilish sohasi insoniyat tarixida eng qadimiy va eng muhim sohalardan biri bo'lib, u har doim rivojlanib kelgan. Bugungi kunda qurilish sohasidagi xalqaro aloqalar kengayib, turli tillarda yozilgan loyihalar, texnik hujjatlar va qo'llanmalar tarjimai tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Qurilish sohasiga oid leksik birliklarni tarjima qilish jarayoni lingvistik va pragmatik jihatdan ham chuqur yondashuvni talab etadi. Chunki qurilish sohasidagi leksik birliklar aniq texnik mazmunga ega bo'lib, ularni noto'g'ri tarjima qilish amaliy jihatdan jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bunday so'zlarni tarjima qilishda nafaqat lug'aviy ekvivalentlarni topish, balki ularning kontekstga mos kelishini ham ta'minlash zarur.

Qurilish leksik birliklari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning asosiy jihatlari aniq ma'no, texnik asoslanganlik va standartlarga moslikdan iborat. Masalan, "Reinforced concrete" atamasi o'zbek tiliga "temir-beton" deb tarjima qilinadi, chunki bu atama O'zbekistondagi qurilish muhandisligida keng qo'llaniladi. Tarjimada har bir leksik birlikni aniq ekvivalentini topish muhim ahamiyatga ega. Agar so'z noto'g'ri tarjima qilinsa, tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, "Load-bearing wall" so'z birikmasi "yuk ko'taruvchi devor" deb tarjima qilinishi kerak, lekin uni "og'ir devor" deb tarjima qilish noto'g'ri bo'ladi.

Bundan tashqari, qurilish sohasiga oid leksik birliklarni tarjima qilishda madaniy va milliy tafovutlarni hisobga olish kerak. Ba'zi qurilish materiallari yoki me'moriy uslublar turli xalqlarda turlicha nomlanishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "Mudbrick" atamasi o'zbek tilida "paxsa g'isht" yoki "xom g'isht" deb tarjima qilinadi. Shuningdek, "Cottage" atamasi G'arb davlatlarida kichik uy ma'nosini bildirsa, O'zbekistonda "hovli" yoki "shaxsiy uy" tushunchasiga yaqinroq bo'ladi.

Leksik birliklarni tarjima qilishda ularning kontekstga mos kelishi ham muhim. Ba'zi so'zlar turli kontekstlarda turlicha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, "Panel" so'zi qurilishda "panelli devor", dizaynda esa "bezak paneli" degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, "Joint" so'zi qurilishda "bo'g'in" sifatida ishlatilsa, huquqiy hujjatlarda "kelishuv" deb tarjima qilinadi. Shuning uchun tarjimon matnning umumiy mazmunini tushunib, unga mos tarjimani tanlashi lozim.

Bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid leksik birliklarni tarjima qilishda pragmatik moslashuv ham katta ahamiyatga ega. Ba'zi murakkab leksemalarni soddalashtirish orqali keng auditoriya uchun tushunarli qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Thermal insulation" atamasi "issiqlik izolyatsiyasi" deb tarjima qilinadi, lekin uni "issiqlik saqlovchi qoplama" shaklida ifodalash yanada tushunarli bo'lishi mumkin. Xuddi shunday, "Seismic-resistant structure" atamasi "zilzilabardosh bino" deb soddalashtirilgan holatda tarjima qilish sohaga aloqasi bo'lmagan insonlar uchun ham tushunarli bo'lishi mumkin.

Shuningdek, qurilish sohasida qisqartmalar keng tarqalgan bo'lib, ularning to'g'ri tarjima qilinishi muhimdir. Masalan, "RCC (Reinforced Cement Concrete)" atamasi

“temir-beton” deb tarjima qilinadi, “HVAC (Heating, Ventilation, and Air Conditioning)” esa “isitish, shamollatish va konditsioner tizimi” sifatida ifodalanadi. Shuningdek, ba’zi terminlarning sinonim shakllari ham mavjud. Masalan, “Cement mortar” atamasi “sement qorishmasi” yoki “sement ohak” deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin.

Qurilish hujjatlarini tarjima qilishda pragmatik yondashuv yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday hujjatlar rasmiy va texnik xususiyatga ega bo‘lib, ularning noto‘g‘ri tarjima qilinishi qurilish jarayonida xatoliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Tarjima jarayonida standart so‘zlarni saqlanishi, texnik jihatdan aniq va qisqa ifodalardan foydalanilishi, shuningdek, huquqiy va xavfsizlik normalariga mos kelishi ta’minlanishi kerak. Masalan, *All load-bearing walls must be reinforced with steel rods* gapini sohadan xabardor bo‘lmagan shaxs *Barcha yuk ko‘taruvchi devorlar po‘lat tayoqchalar bilan mustahkamlanishi kerak* deya noto‘g‘ri tushunishi mumkin. Lekin soha mutaxassislari *Barcha yuk ko‘taruvchi devorlar armatura bilan mustahkamlanishi lozim* deya to‘g‘ri tarjima qiladi. Shuning uchun ham texnik tarjimada umumiy so‘zlardan emas, balki, mutaxassislarning tushunadigan maxsus leksemalardan foydalanish muhimdir.

Tadqiqot bino inshootlariga oid qurilish terminlarining tarjimalarida yuzaga keladigan asosiy muammolarni ko‘rsatdi. Terminlarning aniq, kontekstga mos tarjima qilinishi qurilish jarayonining sifati va xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Tarjima amaliyotida yagona texnik lug‘atlarga tayangan holda, tarjima madaniyatini oshirish talab etiladi. Kelgusida soha bo‘yicha korpuslar asosida avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari uchun asoslar yaratish bo‘yicha tadqiqotlar davom ettirilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Oxford Dictionary of Construction, Surveying and Civil Engineering. Oxford University Press, 2012.
2. Строительный словарь / Под ред. В.И. Молчанов. – Москва: Стройиздат, 2011.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. Qurilish normalari va qoidalari. – Toshkent, 2021.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Komissarov, V.N. Teoriya perevoda. – Moskva: Vysshaya shkola, 2002.
6. Al-Hassnawi, A. Aspects of Scientific and Technical Translation. Journal of Translation, Vol. 3(2), 2008.
7. Vinay, J.P. & Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English. – Amsterdam: John Benjamins, 1995.
8. Saida, R., & Yusubovna, K. G. (2020). Humanization of education as the basis of pedagogical communication. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

9. Qurbonova G. Y., Raxmonberdiyeva S. A. THE MAIN INNOVATION APPROACHES IN THE TEACHING FOREIGN LANGUAGES //Мировая наука. – 2018. – №. 10. – С. 41-43

